



JADIDCHILIK G‘OYALARINING PEDAGOGIK JIHATDAN NAZARIY ASOSLARI

FarDU pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Najmiddinova Saodat Abduvohid qizi

Annatatsiya: *Mazkur maqolada, jadid so‘zi haqida ma’lumot berilib, jadidchilikning nazariy asaoslari va jadidchilikning pedagogik jihatlari hamda jadidchilik g‘oyasiga katta hissa qo‘shtan allomalarimizning fikrlari va g‘oyalari keng yoritib berilgan. Shuningdek, yurtimizda hozirgi kunda jadidchilik g‘oyasiga qanday e’tibor qaratilayotganligi haqida fikr va mulohazalar keltirib o’tilgan.*

Абстрактный: В данной статье представлена информация о слове джадид, теоретических основах джадидизма и педагогических аспектах джадидизма, а также мысли и идеи наших ученых, внесших большой вклад в формирование идеи джадидизма. Также мысли и комментарии о том, как сегодня в нашей стране уделяется внимание идее джадидизма.

Abstract: This article provides information about the word jadid, the theoretical foundations of jadidism and pedagogical aspects of jadidism, as well as the thoughts and ideas of our scholars who contributed greatly to the idea of jadidism. Also, thoughts and comments about how attention is being paid to the idea of Jadidism in our country today.

Kirish so‘zlar: *jadid, maorif tizimi, diniy ta’lim, protektorat, sotsialistik diktatura, mutaasib, feudal qoloqlik, ma;rifat kengashi, jadidchilik harakati, mafkura, g‘oyaviy-mafkuraviy soha, g‘oyaviy-siyosiy tazyiq, milliy iftixor.*

Ключевые слова: джадид, система образования, религиозное образование, протекторат, социалистическая диктатура, фанатизм, феодальная отсталость, Совет Просвещения, джадидистское движение,



и́деология, и́дейно-и́деологиче́ское по́ле, и́дейно-по́лити́ческое давление, национальная гордость.

Key words: *Jadid, educational system, religious education, protectorate, socialist dictatorship, bigot, feudal backwardness, Council of Enlightenment, Jadidist movement, ideology, ideological-ideological field, ideological-political pressure, national pride*

KIRISH

Turkistonda jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllanib, qisqa muddatda o‘zining yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilgan. Jadidchilik haqida gapirishdan oldin “jadid” so‘zining o‘zi nima ekanligini bilib olishimiz kerak. “Jadid” arabcha “yangi” degan ma’nolarni bildiradi. Jadidlar Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo‘lgan xalqlarni, eng avvalo, maorif tizimini yaxshilash, ta’lim sohasini isloh qilish, yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlarni o‘qitish zarur deb bildilar. Ular musulmon xalqlarining maktab va madrasalarida yoshlarga diniy ta’lim, arab, fors var us tillari, tibbiyat, kimyo kabi fanlar o‘qitilishi zarurligi g‘oyasini ilgari suradilar.

Har bir jamiyatdagi o‘zgarishlar o‘z davrining tarixiy sharoitidan kelib chiqib namoyon bo‘ladi. Bu o‘zgarishlarda tarixiy shaxslar, ayniqsa, ziyolilarning o‘rni katta bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos ilg‘or g‘oyalarni ilgari suradi. Ziyolilar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo‘llarini topishga harakat qiladi. Xuddi shunday jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Qrim, Kavkazorti, Turkiston, protektoratga aylantirilgan Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham ro‘y beradi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyolilar o‘z xalqlarini ma’rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko‘tarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar. Jadidchilik harakati 1917-yilgi bolsheviklar to‘ntarilishidan keyin ham sotsialistik diktatura



o‘rnatalishiga qadar o‘z mavqeyi va yo‘nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir.

Jadidchilik harakati haqida shuni aytish mumkinki, mazkur davrda yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy, madaniy muammolar ularning nazaridan chetda qolmagan. Jadidchilik harakati a’zolari bosh maqsadi millat va Vatan masalasi ularning doimo diqqat e’tiborida bo‘lgan. Ayni paytda bu harakat millatni tarbiyalar edi. Ular mamlakatni ozod bo‘lishini anglab yetar ekan bu yo‘lda, eng avvalo, mamlakat fuqarolarini uyg‘otish va tarbiyalashga katta e’tibor qaratadi. Bu maqsad yo‘lida, eng avvalo, maktab maorifini isloh qilishdan boshladilar, so‘ngra milliy matbuot yo‘lga qo‘yildi. Oddiy xalqni tafakkuriga ta’sir etishning yangicha usuli sifatida teatrqa asos solishdi. Yangi adabiyotlar shakllandi, bir so‘z bilan aytganda, yangi tafakkur paydo bo‘ldi.

Qrim-tatar ma’rifatparvari bo‘lgan Ismoil G‘aspirali butun turkiy xalqlar o‘rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli xalqlarning madaniyatini o‘rgangan edi. Turkiston o‘lkasida millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mayjud edi. Jadidchilik g‘oyalarining keng yoyilishida “Tarjimon” gazetasi muhim o‘rin tutadi. Ismoil G‘aspiralining 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining keying rivojiga turtki bo‘ldi. 1893-yilda Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko‘rsata boshladi. Keyinchalik bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi.

O‘rtta Osiyo jadidlari ma’rifatparvarlik yo‘lida qrim ziyolilari tajribalarini o‘rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg‘or g‘oyalaridan ham foydalandilar. O‘rtta Osiyo taraqqiyparvarlik harakati



ishtirokchilarining Yoshi boshqa mamlakatlar jadid vakillaridan ajralib turgan. 1910-yilda ularning eng yoshi Abdulhamid Cho‘lpon—13 yoshda, eng kattasi Mahmudxo‘ja Behbudiy—36 yoshda bo‘lgan. Taraqqiyatparvarlik harakatining rivojlanishi ikki bosqichda bo‘ldi. Birinchi bosqichda ma’rifatparvarlikdan boshlangan bu harakat 1917-yilga kelib o‘zining ikkinchi bosqichi—siyosiy ko‘rinishdagi harakatga aylandi. O‘rtal Osiyodagi milliy taraqqiyatparvarlik harakati hududiy xususiyatlariga ko‘ra Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlariga bo‘linadi. Turkiston jadidchiligining asosiy tarkibini ziyorolar tashkil qilib, ular Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashning oldingi saflarida turdilar. Ular podsho hukumatining xomashyo manbayiga aylantirilgan Turkistonning kelajagini mustaqil, rivojlangan davlat sifatida ko‘rishni orzu qilganlar. XX asrning boshlarida shakllangan taraqqiyatparvarlik kuchlari davlatning boshqaruvi tizimi zamон talablariga javob bermasligini, xalqning turmush darajasi past ekanligini va uni o‘zgartirish lozimligini chuqur angladilar.

Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining yoyilishi bu davrdagi mustamlakachi hukumat va uning amaldorlari hamda mahalliy mutaassib va johil ruhoniylarning qarshiligiga uchradi. Shunga qaramay, jadidlar matbuot, noshirlik va teatr sohalarida faoliyatlarini davom ettirdilar. 1898-yilda Qo‘qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabini ochdi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabini olib, ko‘plab o‘quvchilarning yangi usulda ta’lim olishlariga erishdilar. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlariga Turkistonni o‘rtal asrchilik, feadal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, “Usuli qadim”ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatni bunyod etish, konstitutsion, parlament idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkey tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi va milliy qo‘sish tuzishlar kiradi. Jadidlar o‘z nashrlarida jahonda va Turkiston



hududida ro‘y berayotgan voqealar haqida ma’lumotlar berib borishdi. Ular bu orqali o‘z g‘oyalari mazmunini va ularni keng yoyish zarur ekanligini ko‘rsatdilar.

Turkiston taraqqiyarvar sarmoyadorlari yoshlarni chet ellarga yuborib, zarur kasblarni egallab, xalqqa foydali xizmat qiladigan yoshlarni va ular uchun qayg‘urgan jadidlarni qo‘llab-quvvatladilar. Andijonlik Mirkomil Mirmo‘minboyev o‘z hisobidan ana shu ishga katta miqdorda mablag‘ ajratgan. 1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo‘ja Mehriy, Usmonxo‘ja va Muhammaddin maxdum kabilar “Tarbiyai aftol” (“Bolalar tarbiyasi”) jamiyatini tashkil qilib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar Talabani Turkiyaga o‘qishga yuborganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma’rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surganlar. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyorolarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyondalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadreddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Xivada Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma’rifatparvar, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.



Turkiston jadidlarini birlashtirishda “O‘rta Osiyo jadidlarinining otasi” deb tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmati katta bo‘ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko‘tarildi. Behbudiy O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo‘lboshchisi edi. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o‘z otasi sharafiga “Behbudiy kutubxonasi” deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.

Munavvarqori Abdurashidxonov Turkiston o‘lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma’rifatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri. 1904-yildan boshlab o‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ‘ibotchisi bo‘lgan. Munavvarqori maktablar uchun “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Yer yuzi” kabi darsliklarni yaratdi.

Dastlabki paytlarda madaniy-ma’rifiy, keyinchalik siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan islohotchilik harakati faol ishtirokchilaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug‘ildi. U mакtab va madrasada ta’lim olib, o‘z zamonining ma’rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o‘lkada ta’kim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, 1907-yil “Shuhrat” gazetasiga asos soldi. O‘zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun “Birinchi Muallim”, “Ikkinchi Muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darsliklarni yaratdi. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ham ma’rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatları, kutubxona va kitob do‘konlari ochdilar. “Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot—yo mamot, yo najot—yo halokat, yo saodat—yo



falokat masalasidir” degan so‘zlari har bir maktab binosida yozib qo‘yilishi shart”—deydi Shavkat Mirziyoyev.

Jadidlar teatrga ham asos soldilar. 1913-yili Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Tavallolar tashabbusi bilan O‘rta Osiyodagi birinchi teatr truppasi “Turon” milliy teatri yuzaga keldi. Dramatik asarlar yoza boshladilar. Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” asari buborada birinchi urinish edi. Asar birinchi bor 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi Kolizey teatri binosida “Turon” teatri aktyorlari tomonidan qo‘yildi. Shu kuni tariximizdagi ilk milliy teatrning rasmiy ochilishi kuni hisoblanadi. Teatr haqida Behbudiy “Tiyotr nadur” maqolasida “...Tiyotr ibratnamodur. Tiyotr va’zxonadur. Tiyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rib, kar va quloqsizlar eshitib asarlanur”. Taraqqiy etgan millatlar teatrlarni ulug‘lar uchun odob va ibrat maktabi deb biladilar. Teatr taraqqiy etishni eng birinchi sabab va omillaridandir, deb aytganlar.

Prezident “Ma’naviyat va ma’rifat kengashi” yig‘ilishida “O‘zbekiston mafkuraviy sohada raqobatga tayyormi?” degan savolni berdi. Uning aytishicha, mamlakat madaniy diplomatiyani kuchaytiradi. Shuningdek, o‘zbek xalqi jadidlar ko‘rsatgan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerakligi ta’kidlandi. President shunday savol bilan yuzlandi: ”Biz bugungi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?” “Bular oddiy savollar emas, odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “o‘zbekistonlik” “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz kerak. Ertaga kech bo‘ladi”,—dedi Shavkat Mirziyoyev.



NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Jadidchilik poydevori, tamal toshi—“usuli jadid” maktabi edi. Bu tabiiy, hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa yetishtirmoq lozim. Eski an'anaviy usulda bu ishni amalgalish qiyin. Chunki zamon o'zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o'quvchi tarix, jug'rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. Ilmiy fanlar, fan-texnika yutuqlari so'nggi uch-to'rt asr dunyo taqdirini boshqa o'zanga solib yubordi va Yevropani oldinga olib chiqdi. Endi Yevropa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo'lmaydi. Bu ilm-fanni o'zlashtirmoq uchun Yevropa tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o'zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchchala jihatni ham ushlamoq kerak bo'ladi. Ushlaganda ham hech birini suiste'mol qilmaslik kerak. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolg'izgina din ushlansa, dunyo qo'ldan ketadi. Faqat o'zlik, millat desak, yana dunyodan ajralib qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo'lmaydi. Yevropalashsak, o'zlik yo'qoladi. Bu ham fofija. Bu fofiani Behbudiy "Padarkush"da ko'rsatib beradi. Dunyoga chiqmoq uchun til bilmoq kerak ekan. Bu talab ham bugun mustaqil taraqqiyot sari ketayotgan O'zbekiston uchun kun tartibidan tushgani yo'q. bugun biz yuzma-yuz bo'lib turgan milliy g'oya asoslari, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidchilarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo'yilgan va qizg'in muhokama qilingan edi.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali



vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar. Mamlakatimiz hududida jadidchilik oqimining yuzaga kelishi va uning ma’rifatparvarlik sohasidagi faoliyatiga to‘xtaldik. Jadidchilik harakatining bijtimoiy-siyosiy qarashlari, milliy mustaqillik va davlatchilik g‘oyalari, bu boradagi amaliy harakatlari va kurashlari alohida katta mavzudir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini shuncha ko‘p anglab yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Avloniy “Tarjimai hol. Tanlangan asarlar”. 1998-yil.
2. A. Munavvarqori “Qizil O‘zbekiston”. 1927-yil.
3. B. Qosimov “Milliy uyg‘onish”, T.,”Sharq”. 2004-yil.
4. S. Tillaboyev, A. Zamonov “O‘zbekiston tarixi”. 2019-yil.
5. O. Hoshim “Jadid adabiyoti to‘g‘risida”. 1929-yil.
6. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. Toshkent. “Ma’naviyat” 2002-yil.